




## Xorazm viloyatining sanoatishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-fevral)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
trln. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 1494,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 111,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 93,9 % ni tashkil etdi.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,8%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 41,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 10,2 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish esa - 18,5 % ga o'sishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 % ni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1403,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,9 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 37,9 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 26,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,6 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 37,9 %**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 26,5 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,6 %**



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 141,8 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig‘ish, qayta ishslash va taqsimlash 61,4 %, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish 37,9 % ni tashkil etdi.





**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevral	2019-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts:</b>	40,5	29,6	10,9
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	32,7	45,0	- 12,3
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) –dona:</b>	8485	6700	1785
<b>Maxsus engil avtomobillar – dona:</b>	815	1310	- 495
<b>Aroq – ming litr:</b>	82,4	200,0	- 117,6
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari –ming litr:</b>	4	3,9	0,1
<b>Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	94,0	160	- 66
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:</b>	14811,1	13059,9	1751,6
<b>Tozalangan o'simlik yog'i –tonna:</b>	2043	4079,0	- 2036
<b>Xo'jalik sovuni – tonna:</b>	823,0	2015,0	- 1192
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	12754,7	19309,0	- 6554,3
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	20280,1	30509,0	- 10228,9


Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, issiqlik energiyasi 12,3 ming gkalga, maxsus engil avtomobillari 495 donaga, aroq 117,6 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirit bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 66,0 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 2036,0 tonnaga, xo'jalik sovuni 1631,5 tonnaga, paxta tolasi 6554,3 tonnaga, paxta chigit 10228,9 tonnaga kamaygan.

Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, va boshqa mahsulotlar sezilarli darajada oshgan.


### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

•

**2020-yil yanvar-fevral**



**2019-yil yanvar-fevral**



█ Yuqori texnologiyali  
█ O'rta-yuqori texnologiyali

█ Quyi texnologiyali  
█ O'rta-quyi texnologiyali

2019-yil yanvar-fevral oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-fevral oylarida bu ko'rsatkich 8,5 foizga oshgan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 43,3 foizdan, 40,3 foizga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 45,8 foizdan 45,0 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,0 mldr.so'mlik (2019-yil yanvar-fevral oylarida 1,0 mldr.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 602,7 mldr.so'mlik (545,9 mldr.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 127,1 mldr.so'mlik (82,8 mldr.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 672,4 mldr.so'mlik (577,0 mldr.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2020-yil yanvar-fevral mlrd.so 'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1494,8</b>	<b>111,5</b>
Urganch shahri	304,2	110,8
Xiva shahri	21,7	119,8
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	45,3	92,9
Gurlan tumani	69,0	97,6
Qo'shko'pir tumani	61,5	126,6
Urganch tumani	51,2	113,6
Hazorasp tumani	646,7	113,3
Xonqa tumani	76,3	85,1
Xiva tumani	44,4	205,8
Shovot tumani	71,1	208,3
Yangiariq tumani	57,0	89,4
Yangibozor tumani	80,1	3,1


Yuqorida jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Hazorasp tumani, Urganch shahri, Urganch tumani, Gurlan tumani, Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, Shovot tumanida 208,3 %, Xiva tumanida 205,8 %, Qo'shko'pir tumanida 126,6 %, Xiva shahrida 119,8 %, Urganch tumanida 113,6 % va Hazorasp tumanida 113,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2019-YIL YANVAR-FEVRAL OYLARIIGA NISBATAN, % DA**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Hazorasp tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmnning 43,3 %), Urganch shahri (20,3 %), Xonqa (5,1 %), Shovot (4,8 %), hamda Gurlan (4,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa bog'ot va Xiva tumani (3,0 %), Xiva shahri (1,5 %) to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini  
ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020-yil yanvar-fevral</b>	<b>2019-yil yanvar-fevral</b>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>1494,8</b>	<b>1259,6</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,1</b>	<b>0,1</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	0,1
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>1403,2</b>	<b>1206,8</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	210,7	177,1
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	37,3	21,8
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	389,6	349,8
Kiyim ishlab chiqarish	4,9	3,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,1	1,2
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	1,7	1,0
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	2,6	2,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	0,2


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020-yil yanvar-fevral</b>	<b>2019-yil yanvar-fevral</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	4,9	3,2
Asosiy farmasevtika	1,0	1,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	22,4	14,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	62,1	42,2
Metallurgiya sanoati	8,4	3,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	30,4	20,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	6,0	4,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	24,1	44,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	567,7	493,7
Mebel ishlab chiqarish	5,8	4,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	17,5	15,8
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3,6	2,5
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>80,5</b>	<b>44,7</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>10,9</b>	<b>8,0</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 873,4 mldr.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 118,6 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-fevral



2019 yil yanvar-fevral



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 214,6 mldr.so'mni va 658,8 mldr.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 110,4 foiz va 121,6 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 58,4 foizni (2019 yil yanvar-fevral oylarida 58,5 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ihslab chiqarish 20,3 mldr.so'mni, avtomobil ishalb chiqarish 404,3 mldr.so'mni va 234,2 mldr.so'mlik boshqa mahsulotlar ishalb chiqarilgan.

**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd.so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>873,4</b>	<b>100</b>	<b>118,6</b>
Urganch shahri	116,0	13,3	91,8
Xiva shahri	17,7	2,0	100,5
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	30,6	3,5	143,9
Gurlan tumani	24,7	2,8	115,7
Qo‘shko‘pir tumani	10,1	1,2	114,8
Urganch tumani	36,8	4,2	143,5
Hazorasp tumani	532,4	61,0	125,7
Xonqa tumani	44,1	5,0	125,5
Xiva tumani	16,3	1,9	102,1
Shovot tumani	21,1	2,4	125,3
Yangiariq tumani	10,9	1,3	74,4
Yangibozor tumani	12,6	1,4	140,0

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 61,0 % ni, shuningdek, Urganch shahri 13,3 % ni, Xonqa tumani 5,0 % ni, Urganch tumani 4,2 % ni hamda Bog‘ot tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumani (143,9 %), Urganch tumani (143,5 %), Yangibozor tumani (140,0 %), Hazorasp tumani (125,7 %), Xonqa tumani (125,5 %) hamda Shovot tumanida (125,3 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlabchiarishhajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>214,6</b>	<b>100</b>	<b>110,4</b>
Urganch shahri	68,4	31,8	88,9
Xiva shahri	7,1	3,3	110,4
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	19,2	9,0	145,6
Gurlan tumani	12,3	5,8	112,5
Qo'shko'pir tumani	6,0	2,8	108,6
Urganch tumani	24,7	11,5	147,8
Hazorasp tumani	9,6	4,5	95,8
Xonqa tumani	29,8	13,9	122,9
Xiva tumani	7,3	3,4	97,7
Shovot tumani	16,3	7,6	141,3
Yangiariq tumani	5,7	2,6	103,4
Yangibozor tumani	8,1	3,8	138,6

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 31,8 %, shuningdek, Xonqa tumani 13,9 % ni, Urganch tumani 11,5 % ni, Bog‘ot tumani 9,0 % ni hamda Shovot tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch tumani (147,8 %), Bog‘ot tumani (145,6 %), Shovot tumani (141,3 %), Yangibozor tumani (138,6 %) va Xonqa tumani(122,9 %)ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlabchiarishhajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd.so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>658,9</b>	<b>100</b>	<b>121,6</b>
Urganch shahri	47,6	7,2	96,2
Xiva shahri	10,7	1,6	94,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	11,4	1,7	140,9
Gurlan tumani	12,4	2,0	119,1
Qo‘shko‘pir tumani	4,2	0,6	124,9
Urganch tumani	12,0	1,8	135,3
Hazorasp tumani	522,8	79,3	126,4
Xonqa tumani	14,3	2,2	131,5
Xiva tumani	9,0	1,4	105,9
Shovot tumani	4,8	0,7	90,5
Yangiariq tumani	5,3	0,8	57,2
Yangibozor tumani	4,5	0,7	142,5

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 79,3 %, shuningdek, Urganch shahri 7,2 % ni, Xonqa tumani 2,2 % ni, Gurlan tumani 2,0 % ni hamda Urganch tumani 1,8 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (121,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumani (142,5 %), Bog‘ot tumani (140,9 %), Urganch tumani (135,3 %), Xonqa tumani (131,5 %), Hazorasp tumani (126,4 %) va Qo‘shko‘pir tumani (124,9 %) ni tashkil qildi.



### Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da)

Iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Bog‘ot tumani (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 143,9 %), Urganch tumani (143,5 %), Yangibozor tumani (140,0 %), Hazorasp tumani (125,7 %), Xonqa tumani (125,5 %), Shovot tumani (125,3 %) ga sezilarli darajada oshdi.

Qolgan Urganch shahri, Yangiariq tumanida o‘sish sur’ati 100 % dan kamaygani kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-fevraloylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>807,5</b>	<b>109,6</b>	<b>471,8</b>	<b>116,6</b>
Urganch shahri	2130,1	109,4	812,2	90,5
Xiva shahri	237,9	118,0	193,8	99,0
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot tumani	279,3	91,2	188,5	141,3
Gurlan tumani	470,8	96,2	168,8	114,0
Qo‘siko‘pir tumani	361,4	124,4	59,6	112,8
Urganch tumani	261,6	111,4	187,8	140,8
Hazorasp tumani	2632,1	111,4	2167,0	123,6
Xonqa tumani	414,5	83,7	239,4	123,5
Xiva tumani	309,2	202,4	113,6	100,4
Shovot tumani	423,2	204,5	125,8	123,1
Yangiariq tumani	497,7	88,0	95,5	73,2
Yangibozor tumani	536,4	78,8	145,9	137,7

Yuqoridagi tahlily jadvalga asosan joriy yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 807,5 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,6 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-fevral oylarida Hazorasp tumani 2281,0 ming so‘mdan 2020-yil yanvar-fevral oylarida 2632,1 ming so‘mga, Urganch shahrida 1626,0 ming so‘mdan

2130,1 ming so‘mga, Urganch tumani 116,5 ming so‘mdan 261,6 ming so‘mga, Xiva tumanida 114,8 ming so‘mdan 309,2 ming so‘mgaoshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Hazorasp tumanida (2632,1 ming so‘m), Urganch shahrida (2130,9 ming so‘m)ga o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (807,5 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 471,8 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 116,6 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-fevral oylarida Hazorasp tumani 1792,9 ming so‘mdan 2020 yil yanvar-fevral oylarida 2167,0 ming so‘mga, Xiva shahri 76,0 ming so‘mdan 193,8 ming so‘mga, Urganch tumani 100,7 ming so‘mdan 187,8 ming so‘mga Gurlan tumani 83,4 ming so‘mdan 168,8 ming so‘mga o‘sGANI kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-fevral oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Yangibozor tumani (100%), Xiva tumanı (99,4%), Xonqa tumanı (73,0%), Urganch tumani (72,4%), Bog'ot tumani (68,8%) ni tashkil qildi.


Viloyatda yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 505,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Hazorasp tumani (4,5 %), Qo'shko'pir tumani (24,9 %), Yangiariq tumani (27,2 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 178,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,9 % ni tashkil etdi.

### Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra)



Viloyatda 3,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1,6 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 48,9 %) Urganch shahriga, 710 tasi (21,3 %), Urganch tumaniga 307 tasi (11,7 %), Xiva shahriga 317 tasi (9,5 %), Xonqa tumaniga 307 tasi (9,2 %), Xiva tumaniga 289 tasi (8,7 %) to'g'ri kelmoqda. 2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 317 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lgan Urganch shahrida 54 ta, Xonqa tumanida 43 ta, Yangibozor tumanida 36 ta, Qo'shko'pir tumanida 35 ta va 27 ta Yangiariq tumanida tashkil etilgan.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

"Sanoat statistikasi" bo'limi

Aloqa telefoni (62) 224-64-99